



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 2-son

VOLUME 4 / ISSUE 2 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.2.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

5 **MUXITDINOVA FIRYUZA ABDURASHIDOVNA**

Xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishning ayrim nazariy-huquqiy masalalari

14 **AMIROV SANJAR ILYOS O'G'LI**

Afini demokratiyasining evolyutsiyasi va ta'siri: tarixiy-qiyosiy yondashuv

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

26 **NORMATOV BEKZOD AKRAM O'G'LI**

O'zbekistonda soliq tekshiruvi vazifalari va prinsiplari hamda qonunchilikning rivojlanish tendensiyalari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

39 **MELIYEV XUDOYOR XURRAMOVICH**

Yuridik shaxslarning jinoiy va ma'muriy javobgarligi

45 **SAIDOV MAKSUDBEK NORBOYEVICH**

Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchisining vafot etishi munosabati bilan vujudga keladigan fuqarolik (korporativ) huquqiy oqibatlar

56 **MAMANAZAROV SARDOR SHUHRATOVICH**

Big Data sohasida sun'iy intellektning huquq va majburiyatlari: muammolar va yechimlar

67 **AKRAMOV AKMALJON ANVARJON O'G'LI**

O'zbekistonda raqamli meros va uning huquqiy muammolari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ

- 85 ХАЛМУМИНОВ ЖУМАНАЗАР
ТАШТЕМИРОВИЧ**
Современное состояние энергетического
законодательства Республики Узбекистан и
правовые вопросы его совершенствования

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

- 89 КОМИЛЖОНОВ САРВАР ШУХРАТ УГЛИ**
Правовой статус и полномочия участников и
субъектов доследственной проверки

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 102 GULYAMOV SAID SAIDAXROROVICH,
ABDIXAKIMOV ISLOMBEK BAHODIR O'G'LI**
Kvant tahdidi: kvant hisoblashning xalqaro
kiberxavfsizlikka ta'sirini va yangi huquqiy
bazalarga shoshilinch ehtiyojni o'rganish
- 113 ОКЮЛОВ ОМОНБОЙ,
КАРАХОДЖАЕВА ДИЛОРОМ МАМИРОВНА**
Уникальный научный консорциум
учёных, юристов, цивилистов

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.4.2./KLIU5840>
UDC: 347.191(045)(575.1)

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT ISHTIROKCHISINING VAFOT ETISHI MUNOSABATI BILAN VUJUDGA KELADIGAN FUQAROLIK (KORPORATIV) HUQUQIY OQIBATLAR

Saidov Maksudbek Norboyevich,

G'ijduvon tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0002-7511-8391

e-mail: mr.msaidov@gmail.com

Annotatsiya. Ishtirokchining jamiyatni boshqarish vakolatlari uning jamiyat ustav fondidagi ulushiga bog'liq bo'ladi. Jismoniy shaxs bo'lgan ishtirokchi vafot etganda, unga tegishli bo'lgan ulush meros tarkibiga kiradi. Biroq bu bilan merosxo'r jamiyatda ishtirokchi maqomini olmaydi. Mazkur maqolada vafot etgan ishtirokchining mas'uliyati cheklangan jamiyatdagi ulushi uning merosxo'rlariga o'tishi, ulushning o'tishi bilan ishtirokchining huquq va majburiyatlari o'tishining farqli jihatlari, bu boradagi turli yondashuv va muammolar yoritilgan. Yagona ishtirokchisi bo'lgan hamda ikki va undan ortiq ishtirokchisi bo'lgan jamiyatda ishtirokchi vafot etgan taqdirda, vujudga keladigan fuqarolik huquqiy munosabatlarning farqlanishi misollar asosida ko'rsatib berilgan. Ulushning o'tishida jamiyat ustavining ahamiyati va boshqa ishtirokchilarning erkin irodasi ifodalanishi, qonunchilikda belgilangan jarayonlar va muddatlar tahlil qilingan. Ustavda belgilangan shartlardan kelib chiqib, merosxo'r tomonidan jamiyatning ishtirokchisi maqomini olishi holatlari uch xil ko'rinishda tahlil qilingan. Ulushning merosxo'rga o'tishi jarayonini va tartibini belgilovchi qonunchilik hujjatlari xorijiy davlatlar qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil qilinib, ushbu jarayonlarni soddalashtirish borasida qonunchilik hujjatlariga takliflar berilgan. Shuningdek, merosxo'r va ishtirokchilar o'rtasida vujudga kelgan va sudda ko'rib chiqilgan nizolar o'rganib chiqilib, sud hujjatlariga nisbatan muallifning shaxsiy munosabati bildirilgan.

Kalit so'zlar: ulushning o'tishi, ishtirokchining maqomi, korporativ munosabat, meros, huquqni vujudga kelishi, sud orqali himoya qilish.

ГРАЖДАНСКИЕ (КОРПОРАТИВНЫЕ) ПРАВОВЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ, ВОЗНИКАЮЩИЕ В СВЯЗИ СО СМЕРТЬЮ УЧАСТНИКА ОБЩЕСТВА С ОГРАНИЧЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ

Саидов Максудбек Норбоевич,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),
судья Гиждуванского межрайонного экономического суда

Аннотация. Полномочия по управлению участника общества зависят от его доли в уставном фонде этого общества. В случае смерти участника – физического лица принадлежащая ему доля включается в наследство. Тем не менее наследник не получает статус участника общества. В данной статье рассмотрен вопрос передачи доли умершего участника общества с ограниченной ответственностью его наследникам, ряд аспектов

перехода прав и обязанностей участника при передаче доли, различные подходы и проблемы, связанные с этим. На примерах показаны различия в гражданских правоотношениях, возникающих в случае смерти участника общества, где он является единственным участником, а также если участников несколько. Анализируется значение устава общества и выражения свободной воли других участников при передаче доли, процессы и сроки, определённые законодательством. Исходя из условий, определённых уставом, и обстоятельств изучены три варианта получения наследником статуса участника общества. Автор сравнил законодательные документы, регламентирующие процесс и порядок перехода доли к наследнику в нашей стране, с законодательством зарубежных стран, на основе анализа выдвинуты предложения по упрощению этих процедур. Кроме того, с практической точки зрения изучены споры, возникшие между наследниками и участниками и рассмотренные в суде, и выражено личное отношение автора к вынесенным судебным решениям.

Ключевые слова: передача доли, статус участника, корпоративные отношения, наследование, возникновение права, судебная защита.

CIVIL (CORPORATE) LEGAL CONSEQUENCES ARISING IN CONNECTION WITH THE DEATH OF A SHAREHOLDER IN A LIMITED LIABILITY COMPANY

Saidov Maksudbek Norboyevich,

Judge of the Gijduvan inter-district economic court,
Doctor of Philosophy in Law (PhD)

Abstract. *The powers of a participant in the management of a company depend on his share in the authorized fund of the company. In the event of the death of a participant-physical person, the share belonging to him shall be included in the inheritance. However, the heir does not receive the status of a participant of a company. This article considers the transfer of the share of a deceased participant of a limited liability company to his heirs, various aspects of the transfer of rights and obligations of the participant at the transfer of the share, and different approaches and problems in this regard. On the basis of examples, the differences of civil legal relations arising in the case of the death of a participant of a company with one participant and two or more participants are shown. The significance of the charter of a company and the free will of other participants at the transfer of a share, as well as the processes and terms established by the law are analyzed. Based on the conditions defined by the Articles of Association, the cases of the heir obtaining the status of a participant of the company were analyzed in three different ways. Legislative documents determining the process and procedure of share transfer to the heir were compared with the legislation of foreign countries, and proposals were made to simplify these processes. Disputes that arise between heirs and participants and are considered in court are also studied, and the author's personal attitude toward court documents is expressed.*

Keywords: *transfer of shares, participant status, corporate relations, inheritance, emergence of rights, judicial protection.*

Kirish

O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonuni (matnda Qonun deb yuritadi)ning 7-moddasida yuridik va jismoniy shaxslar jamiyat ishtirokchilari bo'lishga haqli ekanligi belgilangan bo'lib, Qonunda ayrim toifadagi jismoniy shaxslarning jamiyatda ishtirok etishi taqiqlanishi

yoki cheklanishi mumkinligi qayd etilgan. Jismoniy shaxs bo'lgan mas'uliyati cheklangan jamiyat (matnda jamiyat deb yuritiladi) ishtirokchisi vafot etgan taqdirda vujudga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari ni qo'llashda turli xil yondashuvlar mavjud. Xususan, ishtirokchining vafoti munosabati bilan boshqa shaxslarda osonlik bilan

“bir deganda” mulkiy manfaatlarning vujudga kelishi, manfaatdor shaxslarni befarq qoldirmaydi. Shu sababli aksariyat hollarda bunday holat vujudga kelganda, manfaatdor shaxslar zudlik bilan mulkni qo'lga kiritish maqsadida muayyan harakatlarni amalga oshirishga kirishadi. Xususan, ko'p miqdordagi ulush haqida so'z yuritilganda, ayrim hollarda bu boradagi manfaatlar to'qnashuvi sudda ko'riladigan nizoning predmetiga aylanib qoladi. Ayrim hollarda esa vafot etgan ishtirokchining ulushiga egalik qilish maqsadida jinoyat holatlari ham sodir etilib, uzoq davom etadigan surishtiruv-tergov va sud jarayonlarini qamrab oladi. Shu bois bu boradagi qonunchilik hujjatlari va sud amaliyoti tahlili huquqshunoslarning diqqat-e'tibori markazida bo'ladi.

Dastavval milliy qonunchiligimizda jamiyat yagona ishtirokchi tomonidan ta'sis etilishi va boshqarilishiga yo'l qo'yilganligini ta'kidlash joiz. Jamiyatda bir shaxs ishtirokchi bo'lishi mumkin yoki mumkin emasligi xorijiy davlatlar qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil asosida o'rganib chiqilganda, aksariyat G'arbiy Yevropa davlatlarida (Avstriya, Germaniya, Belgiya, Chexiya, Daniya, Fransiya, Italiya) [1] ishtirokchilar soniga qo'yilgan minimal talab 1 tani, Sharqiy Osiyo davlatlarida turlicha, masalan, Xitoy, Yaponiya, Malayziyada 1 ta, Hindiston, Indoneziyada 2 ta, Lotin Amerikasi davrlarida ham turlicha: Argentina, Meksika, Kolumbiya, Peruda 2 ta, Braziliyada 1 ta tashkil etishi aniqlandi.

Huquq atamashunosligida “jamiyat” deganda kamida ikki va undan ortiq shaxslarning birgalikdagi sherikchilikka asoslangan munosabatlari majmui, tashkiliy-huquqiy shakli tushuniladi. Bu borada huquqshunolar o'rtasida turli fikrlar mavjud bo'lib, ayrim soha mutaxassislari “jamiyat” bo'lgandan keyin mulkdor (ishtirokchi) yagona shaxs bo'lishi mumkin emasligini ta'kidlab, bunda jamiyatning xususiy firma yoki korxonadan farqi qolmasligini ta'kidlashadi. Masalan, tadqiqotchi A. Dudchenko, bir shaxs tomoni-

dan ta'sis etilgan yoki jamiyatning faoliyati davomida 100 foiz ulushni qo'lga kiritishi oqibatida yagona ishtirokchisiga aylangan jamiyatda korporativ huquq (munosabatlar) to'g'risida so'z yuritilishiga zarurat yo'qligi, chunki ushbu shaxsdan tashqari jamiyatga nisbatan boshqa hech kimda bunday huquq mavjud emasligi haqida xulosa qiladi [2]. Biroq bu borada o'tkazilgan tadqiqotlarimiz yakuni bo'yicha, jamiyat yagona ishtirokchi tomonidan ham tashkil etilishi va boshqarilishi mumkinligi, yagona ishtirokchisi bo'lgan jamiyat ishtirokchisining huquqlarini amalga oshirish tartibi ikki va undan ortiq ishtirokchi tomonidan tashkil etilgan jamiyat ishtirokchilaridan farq qilishi haqida xulosaga kelganmiz [3]. Shu bilan birga, ingliz-amerika huquqida Salomon v A Salomon & Co Ltd ishi orqali pretsedent [4] sifatida tan olingan, korporativ huquq doirasidagi eng asosiy tushuncha “korporativ shaxs”ning “*corporate personality*” korporativ munosabatlardagi o'rni belgilab qo'yilganini ham fikrimizga qo'shimcha dalil sifatida keltirishimiz mumkin. Shu o'rinda yagona ishtirokchidan iborat bo'lgan jamiyatda korporativ munosabatlar saqlanib qolishi va bu bilan xususiy firma va xususiy korxonadan farqlanishi alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz. Zero, yagona shaxs tomonidan tashkil etilgan jamiyatda ishtirokchilarning huquqlari bilan bog'liq “*The Doctrine of Separation of Management and Ownership*” [5] (MCH)dagi boshqaruv va mulkning alohidagi) doktrinasi harakati mavjud bo'lib, xususiy firma (korxona)da mulkdori korxonani rahbar sifatida yakka boshqaradi. Aynan shundan kelib chiqib, mulkdorning javobgarligi masalasida ham farq qiladi.

Material va metodlar

Tadqiqotda jismoniy shaxs bo'lgan ishtirokchining vafot etishi munosabati bilan uning jamiyatdagi ulushiga bo'lgan huquqi, shuningdek, merosxo'rda ishtirokchi maqomi vujudga kelishini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari o'rganib chiqilib,

bu sohada tadqiqot ishlarini olib borgan huquqshunos olimlarning fikr-mulohazalari va ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi. Shuningdek, qiyosiy-tahlil metodidan foydalangan holda xorijiy davlatlar (Germaniya, Rossiya) qonunchiligi o'rganilib, sudda ko'rilgan nizoli holatlar tahlil qilindi, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi. Bundan tashqari, pragmatik metoddan foydalangan holda o'tkazilgan tadqiqotlar o'rganib chiqilib, shaxsiy mualliflik pozitsiyasi bildirildi.

Tadqiqot natijalari

Jamiyat bir shaxs tomonidan ta'sis etilishi mumkin bo'lib, u jamiyatning yagona ishtirokchisiga aylanadi. Jamiyat keyinchalik bir ishtirokchisi bo'lgan jamiyatga ham aylanishi mumkin. Ushbu shaxs vafot etgan taqdirda, uning jamiyatdagi ulushi agar vasiyat qilib biror shaxsga qoldirilmagan bo'lsa, universal huquqiy vorislikka asosan uning merosxo'rlariga o'tadi. Mazkur norma-da "ulushning o'tishi" jumlasiga (*transmission of shares*) alohida e'tibor qaratish zarur.

Oksford huquqni muhofaza qilish lug'atida ulushning o'tishi (*transmission of shares*) tushunchasiga, qonunga muvofiq, ishtirokchi bankrot deb topilgan yoki vafot etganidan keyin marhumning vorislariga avtomatik ravishda ulushning o'tkazilishi deb ta'rif berilgan. Shuningdek, kompaniya o'z a'zolarini reyestrda kiritmaguncha ulushi o'tkazilgan shaxslar kompaniya a'zosi hisoblanmasligi, o'z navbatida, kompaniyani boshqarishda ishtirok eta olmasligi va umumiy yig'ilishda ovoz berishga haqli emasligi qayd etilgan [6]. Yagona ishtirokchi vafot etgan taqdirda, jamiyat fuqarolik huquqiy munosabat subyekti sifatida faoliyatini davom ettiradi, huquqlarini amalga oshiradi va, o'z navbatida, majburiyatlaridan ozod etilmaydi. Inobatga olish lozimki, ulush meros sifatida qabul qilinib, ro'yxatdan o'tkazilgunga qadar vafot etgan ishtirokchining merosxo'rlari, jamiyatda ishtirokchi hisoblanmaydi. Rus olimi A. Gabov korporatsiya ta'sisчилari (muassis-

lari) korporatsiya davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab, jamiyat ishtirokchisi maqomiga o'tishini ta'kidlaydi [7]. Shu bois jamiyat ishtirokchisi vafot etgan taqdirda uning merosxo'rlari merosni ochish joyi bo'yicha notariusga meros ishini ochish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilishlari kerak.

Notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida Yo'riqnomaning 122-bandiga muvofiq, meros tarkibida boshqarishni talab qiladigan mol-mulk, shu jumladan, yagona ta'sisчiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyekti – yuridik shaxs va (yoki) yakka tartibdagi tadbirkorning mol-mulki mavjud bo'lsa, shuningdek, meros qoldiruvchining kreditorlari merosxo'rlar tomonidan merosni qabul qilib olguniga qadar da'vo qo'zg'atgan hollarda notarius meros mol-mulking boshqaruvchisini tayinlaydi va bu haqda qaror chiqaradi. Meros masalasi hal etilgunga qadar (merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma meros ochilgan kundan e'tiboran 6 oy o'tganidan keyin beriladi) notarius Fuqarolik kodeksining 850-moddasiga muvofiq jamiyat ta'sisчisi sifatida ishtirok etadi va ishonchli boshqaruvchi bilan mol-mulkni ishonchli boshqarish to'g'risida shartnoma tuzadi. Merosga oid ish yakuni bo'yicha meros ochilgan joydagi notarius merosxo'ring iltimosiga ko'ra unga merosga bo'lgan huquqi to'g'risida guvohnoma berishi shart. Merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma jamiyatdagi ulushga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. Meros mol-mulki taqsimlash, merosxo'rlar o'rtasida ulushlarni bo'lish va shu kabi holatlarda nizo vujudga kelganda, bunday nizolar sudlovga tegishlilik qoidasiga asosan fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda ko'rib chiqiladi.

Jamiyat ishtirokчилari soni ikki va undan ortiq shaxsdan iborat bo'lganda va ishtirokчилardan biri bo'lgan jismoniy shaxs vafot etgan taqdirda, merosxo'ring jamiyatga ishtirokchi sifatida kirishi tartibi bir-muncha murakkab jarayon hisoblanadi. Huquqshunos, S. Mogilevskiyga ko'ra, ulush-

ning (bir qismini) o'tish jarayonlari murakkab va muhim mexanizmlardan tarkib topgan bo'lib, bu mas'uliyati cheklangan jamiyatning unikalligini belgilaydi [8]. Qonunda MCHJ ustav kapitalini shakllantirish maqsadida hissa kiritish, ulushni oldi-sotdi kabi hollardan tashqari jamiyat ishtirokchilari "ulushining o'tishi"ni (*"Doctrine of Universal Succession"*) belgilovchi normalar mavjud. Jumladan, Qonun 20-moddasining o'n to'rtinchi qismiga ko'ra, jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlar jismoniy shaxslarning merosxo'rlariga va jamiyatning ishtirokchilari bo'lgan yuridik shaxslarning huquqiy vorislariga o'tadi. Milliy qonunchiligimizdan farqli ravishda ingliz huquqida jismoniy shaxsning nafaqat vafot etishi yoki yuridik shaxsning qayta tashkil etishi, shu bilan birga, jismoniy shaxsning bankrot deb topilishi, nikoh qurishi holatlarida ham "ulushning o'tishi" jarayoni sodir bo'lishi belgilangan.

Amaliyotda vafot etgan ishtirokchining jamiyat ustav fondidagi ulushini merosxo'rlariga qaysi vaqtdan boshlab (qachondan) o'tishi borasida turli xil yondashuvlar mavjud. Fikrimizcha, buning uchun eng avvalo merosxo'rga ulush (ulushga bo'lgan huquq) ning moddiy qimmatlik sifatida o'tish vaqtini belgilash hamda merosxo'rga ishtirokchining huquq va majburiyatlarini o'tish vaqtini farqlash orqali to'xtamga kelish mumkin. Meros tarkibiga meros ochilgan paytda meros qoldiruvchiga tegishli bo'lgan ko'char va ko'chmas mulk, ashyolar, shu jumladan, uning o'limidan keyin ham bekor bo'lmaydigan barcha mulkiy huquq va majburiyatlar, chunonchi, xususiy mulk huquqi va hokazolar kiradi. Ta'kidlash joizki, qonunchilikka muvofiq, vafot etgan ishtirokchining jamiyat ustav fondidagi ulushini uning merosxo'rlariga o'tishi uchun boshqa ishtirokchilarning roziligi talab qilinmaydi. Ya'ni boshqa ishtirokchilarning roziligidan qat'i nazar ulushga bo'lgan huquq meros tarkibiga kiradi. Biroq merosxo'rning jamiyat ishtirokchisi sifatida huquq va majburiyatlarni qo'lga kiritishida

har bir jamiyatning ichki qoidalar (ustavi) ustuvor xarakterga ega bo'ladi. L. Novoselova va merosxo'rlarning ishtirokchi maqomiga ega bo'lishida qonunchilikda huquqiy aniqlik prinsipi yetishmasligini ta'kidlaydi [9].

Tadqiqot natijalari tahlili

Amaliyotdagi holatlarni tahlil qilar ekanmiz, vafot etgan ishtirokchining merosxo'r(lar)i qachondan boshlab jamiyat ishtirokchisi maqomini olishi mumkinligiga turli yondashuvlar bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Birinchi holatda merosxo'rning meros ochilishi bilan ishtirokchi maqomini olishi. Bunga FKning 1145-moddasida berilgan tushuntirishni asos sifatida keltiriladi. Mazkur normaga ko'ra, merosxo'r o'ziga tegishi lozim bo'lgan merosni yoki uning bir qismini (ulushini) meros ochilgan vaqtdan e'tiboran olish huquqiga ega bo'ladi. Biroq Qonun 20-moddasining o'n yettinchi qismida jamiyatning vafot etgan ishtirokchisining merosxo'ri tomonidan meros qabul qilinguniga qadar jamiyatning vafot etgan ishtirokchisining huquqlari vasiyatnomada ko'rsatilgan shaxs tomonidan amalga oshiriladi, uning majburiyatlari esa shu shaxs tomonidan bajariladi, bunday shaxs bo'lmagan taqdirda esa notarius tayinlagan boshqaruvchi tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Ushbu qoida korporativ munosabatni to'g'ridan to'g'ri tartibga soluvchi norma sifatida toki meros qabul qilinmasa, merosxo'r jamiyatni boshqarish huquqiga ega bo'lmasligini anglatadi. Ikkinchi holatda merosxo'rning jamiyatni ogohlantirgan vaqtdan boshlab ishtirokchi maqomini olishi. Ta'kidlash joizki, merosxo'rning bunday majburiyati mavjudligi qonunchilikda to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilmagan. Qonun 20-moddasining o'n ikkinchi qismiga muvofiq, jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushni (ulushning bir qismini) oluvchi mazkur voz kechish to'g'risida jamiyat yozma ravishda xabardor qilingan paytdan e'tiboran jamiyat ishtirokchisining huquqlarini amalga oshiradi va uning majburiyatlarini

o'z zimmasiga oladi. Garchi ushbu norma Qonunda ulushdan (ulushning bir qismidan) boshqa shaxsning foydasiga voz kechilganligi (*transfer of shares*) holatiga nisbatan qo'llangan bo'lsa-da, bir guruh amaliyotchilar mazkur normani analogiyaga muvofiq merosxo'r ulushni o'ziga o'tganligi to'g'risida jamiyatni xabardor qilishga majbur ekanligini ta'kidlashadi va merosxo'r shu vaqtdan boshlab ishtirokchining huquq va majburiyatlariga ega bo'lishini ta'kidlashadi. Uchinchi holatda merosxo'r ishtirokchi sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab ishtirokchi maqomini olishi. Bu holatda merosxo'rning ulushga nisbatan huquqi inkor etilmaydi, biroq jamiyatda ishtirokchi maqomi faqatgina davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtdan boshlab vujudga kelishiga e'tibor qaratiladi. Jumladan, Qonunning 11-moddasi beshinchi qismida jamiyatning ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgartishlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab uchinchi shaxslar uchun kuchga kirishi belgilangan. Fikrimizcha, qonunchilikka merosxo'rning davlat ro'yxatdan o'tkazilgan vaqtdan boshlab ishtirokchi sifatida tan olinishi normasining kiritilishi turli xil munozarali bahslarga chek qo'yadi. Xususan, korporativ huquq rivojlangan Germaniyada ham jamiyat ishtirokchisining huquqiy maqomi (*Gesellschaft mit beschränkter Haftung*) "Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi Qonuni bilan belgilangan bo'lib, unga ko'ra, tijorat reyestrndan ro'yxatdan o'tkazilgan shaxsgina ishtirokchi deb hisoblanadi [10].

Qonun 20-moddasining o'n oltinchi qismida jamiyat ustavida ulushning (ulushning bir qismining) o'tishi va taqsimlanishiga faqat jamiyatning qolgan ishtirokchilari roziligi bilan yo'l qo'yilishi nazarda tutilishi mumkinligi belgilangan. Ushbu normaga asosan, ikki va undan ortiq ishtirokchisi bo'lgan jamiyatdagi ulush meros huquqi asosida merosxo'rga o'tganligi, ushbu merosxo'rning jamiyatning ishtirokchisi maqomini qo'lga

kiritganligini anglatmaydi. Bunga Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida da'vogar D. Murabiyevning javobgarlar F. Muxitdinov va M. Mirsobitovlarni "Star-Alex-Dilsh Avtotrans" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilari safidan chiqarish to'g'risidagi da'vo arizasi bo'yicha qo'zg'atilgan ish yuzasidan qabul qilingan sud hujjatini misol sifatida keltirish mumkin [11]. Aniqlanishicha, "Star-Alex-Dilsh Avtotrans" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischisi M. Murabiyevning jamiyatdagi 49 foiz – 490 000 so'm ulushi Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani 7-sonli notarial idorasi tomonidan 2019-yil 5-oktabrdagi qonun bo'yicha vorislik haqidagi guvohnomaga asosan D. Murabiyevga o'tkazilgan. D. Murabiyevning ishtirokchilar safiga kiritish haqidagi murojaatlari qolgan ishtirokchilar tomonidan e'tiborsiz qoldirilganligi sababli D. Murabiyev sudga yuqorida ko'rsatilgan da'vo talabi bilan murojaat qilgan. Sud da'vogar meros bo'yicha vorislik to'g'risidagi guvohnomaga asosan da'vogar jamiyat ta'sischilari safiga kiritilmaganligi sababli ish yuritishni tugatish to'g'risida xulosaga kelgan.

E'tiborli jihati shundaki, boshqa ishtirokchilar ulush meros asosida o'tganda, merosxo'rni jamiyatning qolgan ishtirokchilari ishtirokchilar safiga kirishini taqiqlashlari mumkin. Mazkur dispozitiv norma jamiyat ishtirokchilarining tarkibiga istalmagan ishtirokchilarning kirishining oldini oladi va shu bilan uning yopiqqligidan dalolat beradi. Bunda barcha masalalar jamiyatning ustavida belgilangan qoidalarga asosan hal etiladi. Jamiyat ustavida ulushning merosxo'rga o'tishi masalasi uch xil ko'rinishda ifodalanishi mumkin:

– *Ulushning merosxo'rlarga o'tkazilishiga yo'l qo'yilmasligi.* Ustavda ulushni merosxo'rlarga o'tkazilishida taqiq qo'yilgan taqdir-da, ishtirokchi vafot etgandan keyin qolgan ishtirokchilar bu haqda xabar olishgach, qonunchilikda belgilangan tartibda umumiy yig'ilishni o'tkazishlari lozim. Shu o'rinda ayrim huquqshunoslar jamiyatning ustavida

bunday qoidaning mavjudligini huquq-tarbiya normalariga zid deb baholashadi. Jumladan, N. Mixeyevaga ko'ra, jamiyat ustavida ishtirokchi vafot etganidan keyin uning merosxo'rlariga ustav kapitalidagi ulushlari qiymatini to'lagan holda jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqining cheklanishini nazarda tutuvchi me'yor bo'lmasligi kerak [12]. Biroq biz bu fikrni qo'llab-quvvatlamaymiz. Chunki qonunchilikda bu holat dispozitiv normalar asosida ustavga havola qilingan bo'lib, ishtirokchilar kim bilan birga ishlashini o'zi tanlashiga imkoniyat yaratib berilishi to'g'ri deb hisoblaymiz. Ustavda merosxo'rning ishtirokchilar safiga kiritilishiga taqiq o'rnatilgan taqdirda, qolgan ishtirokchilarning umumiy yig'ilishida ta'sis hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish, ya'ni ishtirokchining vafot etganligi munosabati bilan ta'sischi safini, ularning jamiyat ustav fondidagi ulushni qayta ko'rib chiqish hamda vafot etgan ishtirokchining merosxo'r(lar)iga ulush qiymatini to'lash to'g'risida qaror qabul qilinadi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, garchi jamiyatning ustavida merosxo'rni ishtirokchi sifatida jamiyatga kirishida taqiq qo'yilgan bo'lsa-da, ayrim hollarda davlat xizmatlari markazi tomonidan Nizomning 40-bandiga (ta'sis hujjatlarini barcha ishtirokchilar tomonidan imzolamaganda) asosan qolgan ishtirokchilarning umumiy yig'ilish qaroriga asosan ta'sis hujjatlariga o'zgartirish kiritish rad etilmoqda. Ayrim hollarda esa notariuslar tomonidan ulushning merosxo'rga o'tganligi bo'yicha guvohnoma berilmoqda. Fikrimizcha, vakolatli organlar birinchi navbatda jamiyatning ustavidan kelib chiqib, jamiyat ustavida merosxo'rning ishtirokchi sifatida kirishiga taqiq qo'yilgan taqdirda, ushbu holatni inobatga olib harakat qilishlari lozim. Davlat xizmatlari markazi jamiyat tomonidan ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarga vafot etgan ishtirokchining yoki uning merosxo'rlarini imzolarini talab qilmasliklari, notariuslar esa ulushga nisbatan guvohnomani bermas-

dan, balki meros ishida jamiyatning qolgan ishtirokchilari qaroriga asosan merosxo'rga to'lab berilishi lozim bo'lgan summaga bo'lgan huquqini ko'rsatib o'tishlari lozim. Biroq ayrim hollarda vakolatli organlarning xatolari tufayli ishtirokchilar sudma-sud yurib, o'z huquqlarini himoya qilishlariga to'g'ri kelmoqda.

– *Ulushni merosxo'rlarga hech qanday cheklovlarisiz o'tishi.* Agar ustavda vafot etgan ishtirokchining ulushini uning merosxo'rlariga o'tishi nazarda tutilgan bo'lsa, ishtirokchi meros guvohnomasiga asosan ustavda belgilangan tartibda jamiyatga va\yoki ishtirokchilarga o'zini jamiyat ishtirokchilariga safiga kiritish to'g'risidagi talab bilan murojaat qiladi. Milliy qonunchiligimizga asosan, bunday ariza kelib tushgach, jamiyat ijro organi kun tartibini belgilagan holda qonunchilikka muvofiq ishtirokchilarning umumiy yig'ilishini chaqirishi va ushbu masalani ko'rib chiqishi va yakuni bo'yicha qaror qabul qilib, hujjatlarni davlat xizmatlari markaziga taqdim etishi lozim. Biroq amaliyotda garchi ishtirokchilar safiga merosxo'rning kirishiga cheklov mavjud bo'lmasa-da, ayrim hollarda ishtirokchilar merosxo'rni jamiyatga ishtirokchi sifatida kirishiga to'sqinlik qilishmoqda. Bu kabi holatlar odatda quyidagi ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi:

– Merosxo'rning arizasini ko'rib chiqilishini paysalga solinadi yoki ko'rib chiqilmaydi.

– Umumiy yig'ilish qaroriga asosan merosxo'rning arizasini qanoatlantirish rad etilib, unga ulush qiymatini to'lash to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Har ikkala holat ham merosxo'rning huquqlari buzilishiga sabab bo'ladi. Sudlarda ko'rilgan ishlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, qolgan ishtirokchilar tomonidan merosxo'rni jamiyat ishtirokchilari tarkibiga kiritishga to'sqinlik qilinganda, merosxo'r odatda umumiy yig'ilish qarorini haqiqiy emas deb topish va\yoki umumiy yig'ilishni chaqirish kabi talablar bilan iqtisodiy sudlarga murojaat qilmoqda. Fikrimizcha,

bunday holatda merosxo'r ulushga nisbatan meros guvohnomasini olmagan bo'lsa, sudga ulushga nisbatan (ishtirokchi sifatida) huquqini tan olish to'g'risidagi da'vo arizasi bilan murojaat qilishi lozim. Chunki Nizomning 21-bandida meros guvohnomasi ulushning (hissaning) boshqa shaxsga o'tganini tasdiqlovchi hujjat ekanligi qayd etilgan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 11-moddasiga muvofiq, huquq haqiqatda mavjud bo'lganda, ammo undan foydalanish mumkin bo'lmagan yoki cheklangan holda huquqni tan olish shaklidagi usul bilan huquq himoya qilinadi. Huquqni tan olish bilan mazkur shaxsda huquq mavjudligi yuzasidan vujudga keladigan barcha gumonlar bartaraf etiladi. Fuqarolik huquqlarini tan olishning usullaridan biri sifatida huquqni tan olish shaxsda subyektiv huquq mavjudligi biron kimsa tomonidan inkor qilinsa, natijada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarda qo'llanadi.

Xorijiy davlatlarning bu boradagi tajribasi o'rganilganda, ulushning merosxo'rga o'tishini rasmiylashtirishning sodda va ixcham mexanizmini ko'rish mumkin. Masalan, Rossiya Federatsiyasida ulushning merosxo'r(lar)ga o'tishida boshqa ishtirokchilarning roziligi talab etilmasa, merosxo'r guvohnomani olgandan keyin ro'yxatdan o'tkazuvchi organga ishtirokchilarning tarkibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida Rossiya Federal soliq xizmatining 2020-yil 31-avgustdagi YED-7-14/617@ buyrug'i bilan tasdiqlangan R13014 shaklidagi ariza bilan meros guvohnomasini ilova qilgan holda murojaat qiladi. Yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga o'zgartirish kiritilgan sanadan boshlab merosxo'r jamiyatning to'la huquqli ishtirokchisiga aylanadi [13]. Fikrimizcha, mazkur mazmundagi tartibning milliy qonunchiligimizga kiritilishi, merosxo'rlarning huquqlarini buzilishining oldini olish bilan bir qatorda korporativ huquqlarni amalga oshirish mexanizmini soddalashtirishga xizmat qiladi.

– *Ulushni merosxo'rga jamiyatning (barcha, ko'pchilik, uchdan ikki va hokazo) ishtirokchilari roziligini olgan holda o'tishi.* Jamiyat ustavida ushbu mazmundagi shart mavjud bo'lsa, merosxo'rning jamiyat ishtirokchilari safiga qo'shilishi yoki qo'shilmasligi boshqa ishtirokchilarning qaroriga bog'liq bo'ladi. Ya'ni merosxo'r o'zini jamiyatning ishtirokchilar safiga kiritish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilgan taqdirda qolgan ishtirokchilar Qonunda belgilangan tartibda umumiy yig'ilishni o'tkazib, ustav normalariga asosan merosxo'rni jamiyat ishtirokchilari safiga kiritish va ulushini belgilab berish yoki arizasini qanoatlantirishni rad etib, unga ulush qiymatini to'lash to'g'risida qaror qabul qilishadi. Sudda ko'rilgan ishlarning aksariyati ustavda aynan shu mazmunda belgilangan shartdan kelib chiqqanligini kuzatish mumkin. Shunday nizolardan biri Karmana tumanlararo iqtisodiy sudida qo'zg'atilib, Oliy Sudning kassatsiya instansiyasi bosqichida qadar ko'rilgan 4-2101-2201/5964-sonli ish hisoblanadi. Mazkur ishda "Daler mega farm" mas'uliyati cheklangan jamiyati (matnda MCHJ deb yuritiladi)ning marhum ishtirokchi F. Djumayevning merosxo'ri G. Tangirova MCHJ hamda MCHJ ishtirokchi (ta'sischi)si N. Nabiyevga nisbatan sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilib, 2022-yil 30-apreldagi 2-sonli umumiy yig'ilish bayonini haqiqiy emas deb topishni va uning haqiqiy emaslik oqibatlarini qo'llashni so'ragan [14].

Aniqlanishicha, MCHJning qiymati 100 000 so'mlik 0,5 foiz ulushga ega bo'lgan ta'sischi F. Djumayev 2021-yil 10-avgust vafot etganidan keyin Toshkent shahri Olmazor tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius tomonidan 2022-yil 6-maydagi "Qonun bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma"ga asosan marhumning MCHJ ustav fondidagi ulushiga G. Tangirova merosxo'r deb belgilangan. MCHJ ta'sischisining 2022-yil 30-apreldagi 2-sonli umumiy yig'ilishi kun

tartibiga qo'yilgan masalalar to'g'risida quyidagi qaror qabul qilingan:

1. Yig'ilish bayoni ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Marhum ta'sischisi F. Djumayevga tegishli 100 000 so'm miqdoridagi 0,5 foiz ulushi jamiyat ixtiyoriga o'tkazilsin. Qonunga muvofiq merosxo'rlarga ulush qiymati yoki asli holda to'lab berilsin.

3. Jamiyatning ustav fondi 20 662 820 so'mdan 300 000 so'mga kamaytirilsin. 2018-yil 20-apreldagi 1-son umumiy yig'ilish bayoni bilan tuzilgan va Karmana tumani davlat xizmatlari markazida ro'yxatdan o'tgan ta'sis shartnomasini bekor qilinsin.

4. Jamiyatning ustav fondi jami 300 000 so'm etib belgilansin. Shundan N.Nabiyevning ulushi 66,7 foiz (200 000 so'm), marhum F.Djumayevning ulushi 33,3 foiz (100 000 so'm) etib belgilansin.

5. Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi Karmana tumani davlat xizmatlari markazi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilsin.

G. Tangirova MCHJning 2022-yil 30-apreldagi 2-sonli umumiy yig'ilishi haqida xabardor qilinmaganligi va yig'ilishda ishtirok etmaganligi, yig'ilish qarorining 2-bandi bilan marhum F. Djumayevning MCHJ ustav fondidagi 0,5 foiz ulushi jamiyatga o'tkazilganligi haqida qaror qabul qilinganligi, 4-bandida esa bunga tamomila teskari, ya'ni marhum F. Djumayevning MCHJ ustav fondidagi ulushi 33,5 foiz miqdorida 100 000 so'm nominal qiymatda belgilanganligi, ushbu holatda N. Nabiyevning yakka o'zi tomonidan MCHJning ustav fondi Qonunga zid ravishda kamaytirilganligi, ushbu qaror asosida jamiyatga tegishli ko'chmas mulk N. Nabiyev ulushining miqdori hamda nominal qiymati kamayishi hisobiga natura tarzida to'lab berilishi natijasida jamiyat sof aktivlarining qiymati kamayganligi, buning natijasida merosxo'r G. Tangirovaga zarar yetkazilishiga olib kelganligi holatlarini da'vo arizasiga asos sifatida keltirgan.

Jamiyat ustavining 7.4-bandida ustav fondidagi ulushning (ulushning bir qismining) merosxo'rlarga o'tishida ishtirokchilarning roziligi talab etilishi belgilangan.

Birinchi instansiya sudi tomonidan F. Djumayevning merosxo'ri G. Tangirova MCHJdagi ulushini unga o'tkazish haqida N.Nabiyevga murojaat qilganligini tasdiqlovchi dalillar taqdim etilmaganligi sababli da'voni qisman qanoatlantirgan. Biroq kasatsiya instansiyasi sudining qarori bilan hal qiluv qarori bekor qilingan. Da'vogar tomonidan nizolashilgan umumiy yig'ilish qarorini haqiqiy emas deb topilib, huquqiy oqibatlarini qo'llash to'g'risidagi talabni qanoatlantirishni rad etish to'g'risida to'xtamga kelgan. Sud hujjatiga Qonunning 20-moddasi o'n to'qqizinchi qismi asos qilib olingan. Unga ko'ra, jamiyatning ustavida jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushdan (ulushning bir qismidan) jamiyatning ishtirokchilari yoki uchinchi shaxslar foydasiga voz kechish uchun jamiyatning roziligini olish zarurligi nazarda tutilgan taqdirda, agar jamiyatga murojaat etilgan paytdan e'tiboran o'ttiz kun ichida yoki jamiyat ustavida belgilangan boshqa muddat ichida jamiyatning yozma roziligi olingan bo'lsa yoxud jamiyatdan rozilik berishga yozma raddiya olinmagan bo'lsa, bunday rozilik olingan deb hisoblanadi. Sud hujjatida javobgarining marhum F. Djumayevning merosxo'riga umumiy yig'ilishda ishtirok etishi uchun xabarnoma yuborilganligi holatini da'vogarni jamiyat ishtirokchisi sifatida umumiy yig'ilishda ishtirok etishga qabul qilganligini anglatishi to'g'risidagi xulosa kelgan.

Fikrimizcha, mazkur holatda nizoli holatga Qonunning 20-moddasi o'n sakkizinchi qismi qo'llanishi lozim. Chunki Qonunning 20-moddasi o'n sakkizinchi qismga ko'ra, jamiyatning ustavida jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushdan (ulushning bir qismidan) jamiyatning ishtirokchilari yoki uchinchi shaxslar foydasiga voz kechish, ulushning (ulushning

bir qismining) merosxo'rlarga yoki huquqiy vorislarga o'tishi yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning ishtirokchilari o'rtasida ulushning (ulushning bir qismining) taqsimlanishi uchun jamiyat ishtirokchilari-ning roziligini olish zarurligi nazarda tutilgan taqdirda, agar jamiyat ishtirokchilariga murojaat etilgan paytdan e'tiboran o'ttiz kun ichida yoki jamiyatning ustavida belgilangan boshqa muddat ichida jamiyatning barcha ishtirokchilarining yozma roziligi olingan bo'lsa yoxud jamiyat ishtirokchilarining birortasidan ham rozilik berishga yozma raddiya olinmagan bo'lsa, bunday rozilik olingan deb hisoblanadi.

Qonunning 22-moddasi oltinchi qismiga ko'ra, jamiyatning ishtirokchilari ulushning o'tishi yoki taqsimlanishiga rozilik berishni rad etsalar, agar jamiyatning ustaviga muvofiq, bunday rozilik olinishi zarur bo'lsa, ulush jamiyatga o'tadi. Bunda jamiyat vafot etgan jamiyat ishtirokchisining merosxo'rlariga, qayta tashkil etilgan jamiyat ishtirokchisi bo'lgan yuridik shaxsning huquqiy vorislariga yoki jamiyat ishtirokchisi bo'lgan tugatilgan yuridik shaxsning ishtirokchilariga tegishincha vafot qilish, qayta tashkil etilish yoki tugatilish kundan oldingi oxirgi hisobot davri uchun jamiyatning buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlari asosida aniqlanadigan ulushning haqiqiy qiymatini to'lashi yoxud ularning roziligi bilan ularga xuddi shunday qiymatdagi mol-mulkni asl holida berishi shart.

Shu o'rinda ulushning o'tishi holatlarini tadqiq qilgan huquqshunos A. Remizova ulushning merosxo'rga o'tishi oqibatida ishtirokchining huquq va majburiyatlarni merosxo'rga o'tishini bitta holat, ya'ni o'zgartirishlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtga bog'lash lozimligi to'g'risida xulosa

qiladi [15]. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 29-moddasida aksiyalarni oluvchiga aksiyalarga bo'lgan huquqlar, depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi kiritilgan paytdan boshlab o'tishi va depo hisobvarag'idan beriladigan ko'chirma bilan tasdiqlanishi belgilanganini ta'kidlash joiz. Mas'uliyati cheklangan jamiyatda ham ulushning o'tishi masalasi aynan shu kabi norma bilan aniqlashtirilgan holda ifodalanilishi lozim.

Xulosalar

FKning 1113-moddasiga ko'ra, meros qoldiruvchining shaxsi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan huquq va majburiyatlar, jumladan, yuridik shaxs hisoblangan tijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlarga a'zolik, ularda ishtirok etish huquqlari, agar qonun yoki shartnomada boshqa hol belgilangan bo'lmasa, meros tarkibiga kirmaydi. Mazkur normadan kelib chiqib, ulushni qabul qilib olgan yangi egasiga ishtirokchining huquqlari to'g'ridan to'g'ri o'tmasligi haqida xulosa qilishimiz mumkin. Merosxo'r va/yoki huquqiy vorisga ulush o'tganidan hamda jamiyat ustavida boshqa ishtirokchilar roziligi talab etil- sa, ushbu rozilik olinganidan va tegishli ulush o'tishi rasmiylashtirilib, ro'yxatdan o'tgandan boshlab ishtirokchi maqomiga ega bo'ladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, vafot etgan ishtirokchining ulushi uning merosxo'rlariga o'tish tartibini belgilovchi qonunchilik hujjatlari – jamiyat, uning ishtirokchilari, shuningdek merosxo'rlar huquqlarini inobatga olgan holda xorijiy davlatlar tajribasi va sudda ko'rilgan ishlarni umumlashtirgan holda qayta ko'rib chiqilishi, nizoli holatlar kelib chiqishi mumkin bo'lgan normalar aniqlashtirilishi va ulushning o'tishi bilan bog'liq jara- yonlar soddalashtirilishi lozim.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 2-SON

VOLUME 4 / ISSUE 2 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.2.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

J. Allayorov

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: K. Abduvaliyeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 23.04.2024-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 13,5.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 50.

TDYU tipografiyasida chop etildi.